

TURLI TIZIMLI TILLARDA “YER” KONSEPTI VERBALIZATORLARINING MORFEMIK SATHDA IFODALANISHI QIYOSIY TADQIQI

Xoshimova Nargis Abdullayevna

Farg‘ona davlat universiteti, i Ingliz tili va adabiyoti fakulteti,
Ingliz tilini o‘qitish metodikasi kafedrasini mudiri,
Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yusupova Nodiraxon Erkinjon qizi

Farg‘ona davlat universiteti magistranti
nodiratoshtemirova1@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada tilshunoslikning zamonaviy yo‘nalishlaridan biri bo‘lmish kognitiv tilshunoslikning asosiy tadqiqot materiali bo‘lgan “yer” konsepti ingliz va o‘zbek tillaridagi morfemik birliklar misolida chog‘ishtirma tilshunoslik nuqtai nazaridan tadqiq etildi.

Kalit so‘zlar: yetakchi morfema, tobe morfema, affiks, suffiks, prefix, konsept, tushuncha, morfemika.

ABSTRACT

In this article, the concept of "earth", which is the main research material of cognitive linguistics, one of the modern directions of linguistics, was studied from the point of view of cross-linguistics on the example of morphemic units in English and Uzbek languages.

Key words: free morphemes, bound (affixational) morphemes, affix, suffix, prefix, concept, notion, morphemics.

Tilning eng kichik ma‘noli qismini o‘rganuvchi tilshunoslik bo‘limi morfemika deb ataladi. Manashunday eng kichik ma‘noli qismlar morfemalar atamasi bilan yuritiladi. Misol uchun terimchilarimizni so‘zi ter-im-chi-lar-imiz-ni qismlaridan tashkil topgan. Bu so‘zdagi “ter” yetakchi morfema hisoblanib, -im, -chi, -lar, -imiz, -ni kabi ko‘makchi morfemalar so‘zga qo‘shimcha ma‘no yuklash vazifasini bajarib kelmoqda.

Yana shu o‘rinda quyidagicha savol tug‘ilishi mumkin: so‘z va morfema bir xil tushunchalarmi? Yo‘q. Morfema va so‘z birliklari bir-biridan tubdan farq qiladi.

Barcha morfemalar ham mustaqil holatda qo‘llanila olmaydi. Lekin so‘z o‘z holicha tilning har bir satxida erkin qo‘llanilishi mumkin. Ingliz tilida ham morfema atamasiga huddi o‘zbek tilidagidek izoh beriladi. Ya’ni morfemalar tilning eng kichik ma’noli qismi bo‘lib, ikki guruhga bo‘linadi: o‘zak morfemalar (root morphemes) va yordamchi (tobe) morfemalar (affixitional morphemes). Misol uchun, passed so‘zidagi pass-o‘zak morfema bo‘lsa, unga qo‘shilgan –ed tobe morfemadir, uning vazifasi pass-o‘tmoq fe’liga o‘tgan zamon ma’nosini yuklashdir. O‘zak morfema so‘zning asl ma’nosini ifodalab, markaziy qism bo‘lib keladi. Turli affikslar qo‘shilishi natijasida mazkur o‘zak morfemalardan yangi so‘z yasalishi yoki shakl yasalishi mumkin. O‘zak morfema so‘zning semantik yadrosidir. Masalan, yerlik, yersizlik, yerli kabi so‘zlarda yer so‘z yasalishi uchun ham, shakl yasalishi uchun ham asos hisoblanadi.

Affiksial morfema mustaqil leksik (lug‘aviy) ma’no ifodalay olmaydigan, so‘zning leksik yoki grammatik ma’nolarini boyitishga xizmat qiluvchi birliklardir. Affiksial morfema ergash yoki yordamchi morfema deb ham ataladi. Masalan, kulolchilik so‘zidagi –chilik qo‘shimchasi ma’lum kasb egasi ma’nosini bildiruvchi so‘z o‘zagiga qo‘shilib, yangi faoliyat ma’nosini yuklaydi. Affiksial morfemalar so‘z yasovchi qo‘shimchalar va shakl yasovchi qo‘shimchalarga bo‘linadi. “Yer” leksemasiga ham so‘z yasovchi qo‘shimchalar qo‘shilishi natijasida boshqa ma’noni bildiruvchi yangi leksemalar hosil bo‘ladi. Misol uchun *yer/siz* so‘zidagi –siz qo‘shimchasi ot so‘z turkumiga kiruvchi so‘zdan sifat yasab yerga ega emaslik ma’nosini bildiradi (*o‘rta asrlarda yersiz dehqonlar ko‘plab qiyinchilikka uchrashgan*). Ingliz tilida: *land/less (adj.). Much of the rural population of India is landless and poverty-stricken (Hindistondagi ko‘plab qishloq aholisi yersiz va kambag‘aldir.)*

Yer/li: Botqoq yerli hududlarda hosil yaxshi bo‘lmaydi.

Yersiz va kichik yerli dehqonlar esa yirik zamindorlarning vaqf yerlarida ijarachi sifatida ishlab berishardi. (“Tarixdan xokoyalar”)

Land/owning: East Prussia was always dominated by a handful of landowning families. (Sharqiy Prussiya doim bir qancha katta yerli oilalar tomonidan boshqarilgan.)

Yer/lik: Xudoyligingizni aytsangiz: qanaqa odamlar o‘zi, tag-zoti qanaqa, asli shu yerlikmi yo boshqa joydan kelishganmi? (O‘tkir Xoshimov “Dunyoning ishlari”).

Native: After 30 years I am finally returning to my native land. (Oradan 30 yil o‘tib, nihoyat, ona yurtimga qaytaman).

Yer/sizlik: Asosiy daromadi dehqonchilik bo‘lgan ko‘plab davlatlarda yersizlik natijasida ishsizlik darajasi keskin oshdi.

Land/lessness: Landlessness was what a millions of farmers suffered especially during middle ages.

Yer/dor: yer egasi, mulkdor. Arslonqul bolalikdan pada boqqan, yerdorlarning xirmonini ko'targan, qo'sh haydagan. (Oybek, Navoiy)

Yer/la; yer/lamoq: ko'mmoq, dafn etmoq. Bolaga qaragam - o'lik. Bolani tashlab ketishga ko'nglim bo'lmadi. Uni yerlash kerak edi. (A. Muxtor. Davr mening taqdirimda).

Bury: I was horrified that people would think I was dead and bury me alive. (odamlar meni o'lgan deb o'ylab tiriklayin ko'mib yuborishlari mumkinligidan vahimaga tushardim.

Yuqorida keltirilgan misollar orqali shuni aniqlashimiz mumkinki, "yer" so'zi – li, -siz, -lik, -sizlik, -dor, -la kabi qo'shimchalar bilan ishlatiladi. Mazkur affiksalar morfemalar yolg'iz qo'llanila olmasada, o'zak morfemaga qo'shimcha ma'no yuklaydi.

-li. Ushbu morfema ham ot so'z turkumiga oid so'zlarga qo'shib, sifat so'z turkumiga mansub so'zlar yasalishi uchun xizmat qiladi. Leksik va semantik jihatdan egalik, mavjudlik kabi ma'nolarni o'zak morfemaga yuklash vazifasini bajaradi.. Misol uchun, yerli- yerga egalik qilish, qorli- qor mavjudligini ifodalaydi.

-siz. Bu affiks ham otlarga qo'shib, shaxs va narsaning belgi va holatni bildiruvchi so'zlar hosil qiladi. –li morfemasiga qarama-qarshi tarzda biror narsa va xususiyatning mavjud emasligini ko'rsatadi. Masalan, yer/siz- yeri (ekin maydoni ma'nosida) yo'q, hush/siz- hushi yo'q kabi so'zlarda –siz morfemasi shaxsning belgisini ifodalasa, unum/siz- unumi yo'q, suv/siz- yetarli suv miqdoriga ega emas kabi leksemalar orqali mazkur qo'shimcha narsaning xususiyatini bildiradi. Ingliz tilidagi –less affiksiga ekvivalent hisoblanadi (landless, hopeless, meaningless, jobless).

Keyingi qo'shimchamiz –la ot so'z turkumiga oid so'zlardan fe'l so'z turkumiga mansub so'zlar yasaydi. Misol uchun, yer/la- dafn qilmoq, so'z/la- gapirmoq, quchoq/la- bag'riga bosmoq. Ingliz tilida ushbu morfemaga ma'no va vazifaviy jihatdan teng bo'lgan bir nechta affikslar mavjud. Masalan, glorify so'zidagi –fy suffiksi glory (o'zbek tiliga sharaf deb tarjima qilinadi) ot so'z turkumiga oid bo'lgan leksemadan ish-harakatni bildiruvchi yangi leksema glorify (ya'ni sharaflamoq) ni hosil qiladi. Bu qo'shimchani ishlatilishiga boshqa bir qancha misollar keltirilishi mumkin (beautify, justify, simplify, purify, clarify).

-sizlik affiksi ma'lum bir narsaga ega bo'lmaslik degan ma'noni bildirib, ingliz tilidagi –ness suffiksi, im-, ir-, un-, dis-, il- kabi prefikslari bilan teng ma'no anglatadi. Masalan, landless/ness (yer/sizlik), im/patience (sabr/sizlik), ir/responsibility

(mas'uliyat/sizlik), un/belief (e'tiqodsizlik), dis/ability (qobiliyat/sizlik), il/literacy (savod/sizlik).

"Yer" leksemasiga shakl yasovchi qoshimchalar (prefikslar va postfikslar) qo'shilishi mumkin: (kelishik qo'shimchalari bilan) yerni, yerning, yerga, yerdan, yerda; (egalik qo'shimchalari bilan) yerim, yering, yeri, yerimiz, yeringiz, yerlari. Shuningdek, yer so'zi ishtirokida yuzaga keladigan ko'plab qo'shma so'zlar har ikki tilda, ya'ni ingliz va o'zbek tillarida mavjud. Misol uchun:

Yer/to'la: Keyin gulsafsarlar o'sib yotgan allaqanday zahkash, katalakdek hovliga kirib qoldik. Yerto'la soyasida yotgan kuchukni ko'rib, to'xtab qoldim.

Cellar: They cleared out the cellar and transformed it into a lovely playroom for the kids. (Ular yerto'lani tozlashdi va bu yerni bolalar uchun sevimli o'yin xonasoga aylantirishdi.)

Yer/tut: qulupnay. Sen oyog'ing ostidagi yertutni kormapsanaa? Nosir ham Ozod bilan "bellashadi". (M. Xidir).

Strawberry: In addition, volunteers regularly drop off meals for the residents, including fruit, loaves of bread and once even a strawberry shortcake. (Sarah Ravani, San Francisco Chronicle, 14 Jan. 2023).- Bundan tashqari, ko'ngillilar muntazam ravishda aholi uchun ovqat, jumladan, mevalar, non va hatto yilda bir marta qulupnayli keyklarni olib kelishadi.

Yer/yong'oq: Sanobar uyiga kiriboq, kichik o'g'lining uyning har burchagiga yeryong'oq bo'laklarini sohib yuborganligini ko'rib, judayam jahllandi.

Peanut; groundnut: Children who suffered from a severe allergy took part in the year-long trial, where they were given increasing amounts of peanut protein. (Og'ir allergiya bilan og'rigan bolalar bir yil davom etgan sinovda ishtirok etdilar, ulargq ortib boradigan miqdorda yeryong'oq oqsili berildi.)

Yer/osti: Yerosti boyliklari ko'p mamlakatlar iqtisodi rivojlanishi jihatidan ham boshqa davlatlardan ustuvorlikka ega bo'ladilar.

Under/ground: Ten miners were trapped underground when the roof of the tunnel fell in. (Tunnel tomi qulash paytida o'nta kon ishchisi yer ostida qamalib qoldi).

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlarga qarab aytishimiz mumkinki, "yer" konseptual maydoni qiyosiy va chog'ishtirma usullar orqali o'rganilishi natijasida, ushbu konseptning ingliz va o'zbek tillaridagi morfemik sathda izomorfik va allomorfik jihatlarga ega ekanligi tadqiq qilindi. O'tkazilgan tadqiqotlarga qaramay, ushbu konseptning noverbal vositalar orqali ifodalanishi, stilistik jihatdan qo'llanilishi, tayyor nutq birliklarida va badiiy adabiy diskurslarda ifodalanishi masalalari hamon ochiq qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

- 1.A. Madvaliyev tahriri ostida. "O'zbek tilining izohli lug'ati". Davlat ilmiy nashriyoti "Toshkent".
2. Sh.Safarov "Kognitiv tilshunoslik" -Jizzax, 2006.
3. Colin McIntosh. "Cambridge advanced learner's dictionary". Cambridge university press, 2013.
4. A. L. ogli Melikuziev, (2022). HISTORICAL AND MODERN CLASSIFICATION OF PARALINGUISTICS. *Academicia Globe: Inderscience Research*, 3(10), 126-128.